pragmatik natijasi quyidagi mezon asosida baholanadi. Transformatsiya turi → o‘zgargan lingvistik shakl → saqlangan komponent → yo‘qolgan/kuchaygan komponent → umumiy pragmatik natija.

Xulosa va takliflar. Ernest Hemingway asarlarining inglizcha original va o‘zbekcha tarjima matnlarini qiyosiy-chog‘ishtirma o‘rganish pragmatik ekvivalentlikning ko‘p qatlamli lingvistik hodisa ekanligini ko‘rsatadi. pragmatik Ekvivalentlikni faqat leksik yoki grammatik muvofiqlik asosida aniqlash yetarli emas. Uning tarkibida lisoniy shakl, semantik mazmun, kontekst, kommunikativ niyat va illokutiv funksiya o‘zaro bog‘langan. Original va tarjima birliklari shaklan farq qilishi mumkin, biroq ularning kommunikativ vazifasi saqlansa, funksional-pragmatik ekvivalentlik yuzaga keladi. Hemingvayning qisqa dialoglari, ellipsis, modal birliklar, inkor shakllari, diskurs markerlari va so‘roq konstruksiyalari pragmatik mazmunni shakllantirishda muhim lingvistik vositalardir. Tarjimada pragmatik ekvivalentlikning to‘liq, funksional, qisman, kuchaygan, susaygan va kompensator ko‘rinishlarini farqlash mumkin. Implikaturaning tarjimada saqlanishi pragmatik ekvivalentlikni aniqlashning muhim mezonlaridan biridir. Originaldagi yashirin ma’noning tarjimada eksplicitlashtirilishi har doim ham pragmatik yo‘qotish hisoblanmaydi; u kontekstual vazifani saqlagan holda amalga oshirilgan bo‘lsa, funksional muvofiqlik yuzaga kelishi mumkin. Tarjima transformatsiyalarini baholashda transformatsiyaning mavjudligi emas, balki uning pragmatik natijasi asosiy mezon bo‘lishi kerak. *Lisoniy shakl → semantik mazmun → kontekst → kommunikativ niyat → illokutiv funksiya → tarjima vositasi → pragmatik natija* modeli ingliz va o‘zbek badiiy matnlarining pragmatik ekvivalentligini qiyosiy o‘rganish uchun samarali metodik asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Austin J.L. How to Do Things with Words. Oxford, Clarendon Press, 1962.

(2). Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. London, Routledge, 2018.

(3). Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. London, Oxford University Press, 1965.

(4). Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. New York, Academic Press, 1975, p. 41–58.

(5). Hemingway E. To Have and Have Not. New York, Charles Scribner’s Sons, 1937.

(6). Hemingway E. Across the River and into the Trees. New York, Charles Scribner’s Sons, 1950.

(7). Nida E.A. Toward a Science of Translating. Leiden, E.J.Brill, 1964.

(8). Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. Leiden, E J.Brill, 1969.

(9). Newmark P. A Textbook of Translation. New York, Prentice Hall, 1988.

(10). Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. Cambridge, Cambridge University Press, 1969.

(11). Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. Amsterdam, John Benjamins, 1995.

(12). Venuti L. The Translator’s Invisibility: A History of Translation. London, Routledge, 1995.

Yigitaliyeva Zilola Muratovna (Farg‘ona davlat universiteti dotsenti; zilolayigitaliyeva5@gmail.com; ORSID: 0000-0003-1681-2620)

MORFOLOGIK VOSITALARNING PERSUAZIV VAZIFASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada persuazivlik (ishontirish) maydonining yadroviy qismi hisoblangan morfologik vositalarning pragmatik va diskursiv vazifalari o‘zbek va nemis tillari qiyosiy aspektida tadqiq etilgan. Ishda epistemik va deontik modallik ko‘rsatkichlari, yuklamalar, buyruq hamda shart mayllari, shuningdek, shaxs-son va olmoshlarning matnda tinglovchi yoki o‘quvchiga ta’sir o‘tkazish, da’voni kuchaytirish yoki yumshatish strategiyalaridagi o‘rni lisoniy dalillar orqali ochib berilgan. Tillarning strukturaviy farqlariga qaramay, ularning funksional jihatdan yaqinligi hamda argumentativ operatorlik tabiati aniqlangan.*

Kalit so‘zlar: *persuazivlik, morfologik sath, epistemik modallik, deontik modallik, evidensiallik, yuklamalar (modalpartikeln), inkluziv “biz”, pragmatik vazifa, argumentatsiya.*

ПЕРСУАЗИВНАЯ ФУНКЦИЯ МОРФОЛОГИЧЕСКИХ СРЕДСТВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются прагматические и дискурсивные функции морфологических средств, считающихся ядром поля убеждения, в сравнительном аспекте узбекского и немецкого языков. Работа раскрывает роль эпистемических и деонтических индикаторов модальности, нагрузок, императивных и условных наклонений, а также лицевого числа и местоимений в стратегиях воздействия на слушателя или читателя в тексте, усиления или смягчения утверждения посредством лингвистических аргументов. Несмотря на структурные различия языков, выявляется их функциональная близость и природа аргументативных операторов.*

Ключевые слова: *персуазивность, морфологический уровень, эпистемическая модальность, деонтическая модальность, эвиденциальность, частицы (modalpartikeln), инклюзивное «мы», прагматическая задача, аргументация.*

PERSUASIVE FUNCTION OF MORPHOLOGICAL MEANS

Annotation. *This article examines the pragmatic and discursive functions of morphological devices, considered the core of persuasion, in a comparative study of the Uzbek and German languages. The paper explores the role of epistemic and deontic indicators of modality, stress, imperative and conditional moods, as well as personal number and pronouns, in strategies for influencing the listener or reader in a text, strengthening or softening assertions through linguistic arguments. Despite the structural differences between the languages, their functional similarities and the nature of their argumentative operators are revealed.*

Keywords: *persuasion, morphological level, epistemic modality, deontic modality, evidentiality, loadings (modalpartikeln), inclusive "we", pragmatic task, argumentation.*

Kirish. Persuazivlik (ishontirish) maydonining yadrosi morfologik sathda joylashishi haqidagi faraz ushbu tadqiqotning bosh obyekti hisoblanadi. Bu yerda koʻrib chiqiladigan vositalar alohida leksik birlik emas, balki soʻz shakli yoki qoʻshimchadir. Ular matnda yuzaki koʻzga tashlanmasa-da, deyarli har bir persuaziv epizodda faol ishtirok etadi.

Modallik – soʻzlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini bildiruvchi kategoriya bo'lib, uning ikki turi ajratiladi:

1. Epistemik modallik (fikrning rost yoki noaniqligi).
2. Deontik modallik (zarurat, ruxsat, taqiq).

Oʻzbek tilshunosligida ushbu vositalar mazmuniy sintaksis doirasida, nemis tilida esa modal feʼllar doirasida [2] batafsil oʻrganilgan. Modallik ishontirishda ikki qarama-qarshi vazifani bajaradi: soʻzlovchi fikrini kuchaytirishi (*boosters* guruhi) yoki uni ataylab yumshatishi (*hedges* guruhi) mumkin. T.Larina koʻrsatganidek, noaniqlik lisoniy manipulatsiya sifatida qoʻllanganda, bildirilgan daʼvoni rad etish qiyinlashadi.

Adabiyotlar tahlili. Persuazivlik va uning lisoniy vositalari muammosi jahon hamda milliy tilshunoslikda turli aspektlarda oʻrganib kelinmoqda. Persuazivlik va pragmalingvistik taʼsir mexanizmlarining nazariy asoslari J.-K.Anskombr va O.Dyukro (J.-C.Anscombre, O.Ducrot) tomonidan ilgari surilgan *"Til ichidagi argumentatsiya"* (*L'argumentation dans la langue*) nazariyasiga borib taqaladi. Mualliflarning taʼkidlashicha, til birliklari va aynan gramatik operatorlar shunchaki axborot uzatmaydi, balki gapning yoʻnalishini va uning argumentativ qiymatini belgilaydi.

Akademik yozuv va diskursda persuaziv vositalarning oʻrnini Ken Hayland (K.Hyland) atroflicha tadqiq etgan. K.Hayland interaktiv va interpersonal vositalarni tasniflab, *hedges* (yumshatish) va *boosters* (kuchaytirish) kategoriyalarining muallif va kitobxon oʻrtasidagi muloqotni yoʻlga qoʻyishdagi pragmatik funksiyalarini ochib bergan. Uning qarashlariga koʻra, oʻquvchini ishontirish uchun manba berayotgan daʼvoning qatʼiyligi va egiluvchanligi oʻrtasidagi muvozanatni morfologik hamda leksik vositalar orqali ushlab turish zarur.

T.V.Larina xalqaro va madaniyatlararo muloqot doirasida muomalalik hamda distancion strategiyalarni oʻrganar ekan, noaniqlik va ehtimollik kategoriyalarining manipulyativ xarakterini koʻrsatib oʻtadi. Larinaning fikricha, gipotetik va yumshatilgan shakllar soʻzlovchini ehtimoliy eʼtirozlardan himoya qiladi va adresatga muloqot bosimini kamaytirib, uni bilvosita kelishuvga undaydi.

Oʻzbek tilshunosligida modallik va uning mazmuniy-sintaktik xususiyatlari A.Nurmonov va N. Mahmudovlar boshchiligida yaratilgan "Oʻzbek tilining mazmuniy sintaksisi" tadqiqotida har tomonlama tahlil qilingan. Ushbu ishda modal maʼnolarning shakllanishida morfemik va sintaktik birliklarning oʻzaro hamkorligi koʻrsatib berilgan. Biroq ushbu tadqiqotlarda modallik, asosan, mantiqiy-grammatik kategoriya sifatida talqin qilingan boʻlib, uning matn va diskursdagi persuaziv-manipulyativ potensiali yetarlicha yoritilmagan edi.

Nemis tilshunosligida modal feʼllar va modal yuklamalar (*Modalpartikeln*) tizimi G. Helbig, J. Buscha hamda M.Turmayr (M.Thurmair) ishlarida chuqur tahlil qilingan. M.Turmayr nemis modal yuklamalarini soʻzlovchi va tinglovchining umumiy bilim fondi (*fon*) bilan bogʻlovchi, muloqot kontekstini boshqaruvchi muhim pragmatik vosita sifatida baholaydi. Nemis tilida ushbu vositalarning diskursiv tabiati atroflicha oʻrganilgan boʻlsa-da, ularni agglutinativ tillar (xususan, oʻzbek tili) morfologik affikslari va yuklamalari bilan qiyosiy-pragmatik aspektda oʻrganish hamon dolzarb vazifalardan biri boʻlib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot doirasida olingan har bir lisoniy misol uchun vosita turi (modal so‘z, qo‘shimcha, mayl shakli, yuklama, shaxs shakli) va uning o‘ziga xos pragmatik vazifasi (kuchaytirish, yumshatish, undash, masofa saqlash) farqlandi hamda qiyosiy-diskursiv tahlil metodlari asosida tasniflandi. Tadqiqot materiallari sifatida A.Qahhorning “Sarob” romani, Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asari [4] hamda B.Shlinkning “Der Vorleser” [5] romani matnlari tanlab olindi.

Tahlil va natija. O‘zbek matnlarida epistemik modallikning eng faol vositalari *shekilli, chamasi, -sa kerak* (yumshatuvchi) va *albatta* (kuchaytiruvchi) hisoblanadi. *Albatta* so‘zi da’voni va’da berish yoki ishontirish epizodlarida keskin kuchaytiradi: *“Albatta, yuboraman!”* A.Qahhorning “Sarob” romanida aniqlangan kuchaytiruvchi vositalar soni yumshatuvchilarga qaraganda ancha yuqori bo‘lib, bu o‘zbek badiiy dialogining o‘ziga xos pragmatik belgisi bo‘lishi mumkin. Alohida e’tiborga loyiq vosita *ekan* va *-dir* shakllaridir. Turkiy tillarga xos ushbu kategoriya *evidensiallik* (axborot manbasini ko‘rsatish) deb ataladi. Persuaziv nuqtayi nazardan, *ekan* ikki yoqlama ishlaydi: so‘zlovchi javobgarlikdan qutuladi va axborotga tashqi obro‘li manba qo‘shadi: *“Biz to‘g‘ri aytgan ekanmiz, bo‘lmasa?”*

Nemis tilida epistemik ma’no asosan modal fe’llar va *Konjunktiv* orqali beriladi. B.Shlinkning “Der Vorleser” romanida *Konjunktiv II* shartli mulohaza orqali o‘zini oqlash va hikoyachining subyektiv bahosini berishda keladi: *“Wenn ich dich nicht hätte kennen wollen, wäre ich gar nicht mitgefahren”. Konjunktiv I* esa bilvosita nutqda axborotdan masofa saqlashga xizmat qiladi. Xannaning suddagi ko‘rsatmasi lisoniy jihatdan hikoyachining bu so‘zlarga qo‘shilmasligini, ya’ni masofa saqlashini anglatadi. Deontik modallik nemis matnida umumlashtiruvchi *man* olmoshi hamda *dürfen* (taqiq) va *müssen* (zarurat) juftligi orqali axloqiy qoidalarni shakllantiradi. O‘zbek matnida bu ma’no *kerak, lozim, mumkin emas* leksik birliklari va *-masin* shakli orqali ifodalanadi.

Yuklamalarning tekstual tahlili. Matnda persuaziv vazifani yuklamalar ham bajaradi. O‘zbek tilida *-ku, -da, -chi, -u, -a* va *axir* yuklamalari persuazivlikni taminlovchi operatorlardir:

- -ku – adresatning o‘zi biladigan haqiqatga tayanish (*bilasiz-ku*);
- -da – ta’kid va o‘zini oqlash (*omiman-da*);
- -chi – buyruqni iltimosga aylantirib yumshatish (*desangiz-chi*);
- axir – e’tirozni kuchaytirish vazifalarini bajaradi.

Nemis tilida bu funksiyani *Modalpartikeln* (modal yuklamalar) bajaradi. M.Turmayr ularni so‘zlovchining tinglovchi bilimi va kutilmasiga ishorasi sifatida baholaydi. Matnda *doch* (norozilik va haqiqatga ishora), *denn* (savolga hayrat ohangini qo‘shish) va *mal* (bahonani yengillashtirish) yuklamalari aniqlandi.

Mayl, zamon va shaxs shakllari pragramatikasi. Persuaziv ma’no beruvchi morfologik vositalardan yana biri bu mayl, zamon va shaxs shakllaridir. Buyruq mayli o‘zbek matnida har doim yumshatuvchi vositalar (*aylanay, qani, -chi*) bilan keladi; yumshatgichsiz buyruq faqat tahdid yoki yuqori statusli shaxs nutqida uchraydi. Nemis matnida esa to‘g‘ridan to‘g‘ri buyruq berish (*Direktheit*) oddiy hol hisoblanadi. Shart mayli (*-sa* va *wenn*) har ikkala tilda ham kelajakdagi lisoniy foyda yoki salbiy oqibatlardan ogohlantiruvchi mantiqiy dalil (argument) vazifasini o'taydi.

Persuaziv nutqda inklyuziv “biz” (so‘zlovchi va tinglovchini birlashtiruvchi) shakli K.Hyland tasnifidagi *ethos* guruhiga kiradi. O‘zbek matnlarida “biz” shakli uch xil pragmatik ma’noda keladi: Hokimiyat/institut bosimi (tergovchi nutqida); o‘quvchi bilan hamfikrlik uyg‘otish (muallif nutqida). Milliy jamoaviylikni anglatish. Nemis matnida esa sud sahnasida “biz” va “men” strategiyalari to‘qnashadi: personaj aybni jamoaga yoyish uchun *wir* deydi, sudya esa buni fosh etib, shaxsiy javobgarlikni (*ich allein*) talab qiladi.

Xulosa. Shunday qilib, o‘zbek tilidagi evidensial qo‘shimcha (*ekan*) bajargan pragmatik vazifani nemis tilida mayl shakli (*Konyunktiv I*) bajarishi aniqlandi. Funksional jihatdan o'zbek va nemis yuklamalari tizimi (masalan, *-ku* va *doch*) bir-biriga juda yaqin bo‘lsa-da, strukturaviy jihatdan tubdan farq qiladi: o‘zbek yuklamasi enklitik, nemis yuklamasi esa mustaqil so‘zdir. Bu holat J.-K.Anskombr va O.Dyukroning “til ichidagi argumentatsiya” nazariyasiga to‘liq mos keladi: yuklamalar gapning sof informativ mazmunini emas, balki uning argumentativ yo‘nalishini belgilaydi.

Morfologik vositalarning persuaziv potensiali matn interpretatsiyasida yetakchi o'rin tutadi. Tillarning lisoniy tabiati turlicha bo'lsa-da (o'zbek tilida agglutinativ affikslar, nemis tilida analitik/flektiv shakllar), diskursda ular bir xil pragmatik yukni – tinglovchini ishontirish, da'voni kuchaytirish yoki manipulyativ tarzda yumshatish vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

[1]. Nurmonov A., Mahmudov N. va b. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Toshkent, “Fan”, 1992.

[2]. Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik: Ein Handbuch für den Ausländerunterricht. Langenscheidt, 2001.
[3]. Larina T.V. Kategoriya flourishes va ingliz muloqot madaniyati. Moskva,"Языки славянских культур", 2003.
[4]. Cho'lpon Abdulhamid. Kecha va kunduz. Toshkent, „Sharq", 2000.
[5]. Schlink, Bernhard. Der Vorleser. Zürich, Diogenes Verlag, 1995.
[6]. Thurmair Maria. Modalpartikeln und ihre Kombinationen. Tübingen, Niemeyer, 1989.
[7]. Anscombre Jean-Claude, Ducrot Oswald. L'argumentation dans la langue. Bruxelles, Mardaga, 1983.
[8]. Hyland Ken. Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing. Michigan University Press, 2000.

Jabbarova Mashhura Jo'raqulovna (GulDU mustaqil tadqiqotchisi; djabbarova.21.06.83@gmail.com)

QURILISH TERMINLARINING PAYDO BO'LISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o'zbek tili qurilish terminologiyasining shakllanish manbalari va yangi terminlarning yuzaga kelishida ishtirok etuvchi lisoniy omillar tahlil qilinadi. Qurilish terminlarining paydo bo'lishida tilning ichki nominativ imkoniyatlari, umumiste'mol leksikasining terminlashuvi, so'z yasalishi, semantik ko'chish, metaforik nominatsiya hamda boshqa tillardan o'zlashuv jarayonlarining o'rni yoritiladi. Shuningdek, terminologik tizimning ichki va tashqi manbalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, bir terminning shakllanishida bir necha nominativ mexanizmning ishtirok etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Qurilish terminlarining shakllanishi va rivojlanishida mavjud leksik birliklarning yangi sohaviy tushunchalarni ifodalashga moslashuvi muhim jarayon sifatida baholanadi. Tadqiqotda qurilish terminologiyasining shakllanish manbalari o'zaro bog'liq lisoniy jarayonlar sifatida talqin qilinadi.*

Kalit so'zlar: *qurilish terminologiyasi, termin, atama, nominatsiya, terminlashuv, lisoniy omillar, ichki manba, tashqi manba, semantik ko'chish, o'zlashma terminlar.*

Жаббарова Машхура Джуракуловна (независимый исследователь Гулистанского государственного университета)

ФОРМИРОВАНИЕ СТРОИТЕЛЬНЫХ ТЕРМИНОВ

Аннотация. *В данной статье анализируются источники формирования строительной терминологии узбекского языка и лингвистические факторы, участвующие в возникновении новых терминов. Рассматривается роль внутренних номинативных возможностей языка, терминологизации общеупотребительной лексики, словообразования, семантического переноса, метафорической номинации, а также процессов заимствования из других языков. Особое внимание уделяется взаимосвязи внутренних и внешних источников терминологической системы и возможности участия нескольких номинативных механизмов в формировании одного термина. Адаптация существующих лексических единиц для обозначения новых специальных понятий рассматривается как важный процесс формирования и развития строительной терминологии. В исследовании источники формирования строительной терминологии интерпретируются как взаимосвязанные лингвистические процессы.*

Ключевые слова: *строительная терминология, термин, наименование, номинация, терминологизация, лингвистические факторы, внутренний источник, внешний источник, семантический перенос, заимствованные термины.*

Jabbarova Mashhura Jo'raqulovna (Independent Researcher at Gulistan State University)

THE FORMATION OF CONSTRUCTION TERMS

Annotation. *This article analyzes the sources of formation of construction terminology in the Uzbek language and the linguistic factors involved in the emergence of new terms. It examines the role of the language's internal nominative resources, the terminologization of general vocabulary, word formation, semantic transfer, metaphorical nomination, and borrowing from other languages in the development of construction terms. Particular attention is paid to the interrelationship between internal and external sources of the terminological system and the possibility of several nominative mechanisms contributing to the formation of a single term. The adaptation of existing lexical units to express new specialized concepts is considered an important process in the formation and development of construction terminology. The study interprets the sources of construction terminology formation as interconnected linguistic processes.*

Keywords: *construction terminology, term, designation, nomination, terminologization, linguistic factors, internal sources, external sources, semantic transfer, borrowed terms.*